

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH JARAYONIDA OILANING ROLI VA VAZIFALARI

Yangiboyev Nodirbek Madiyor o'g'li

Chirchir Davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

“Maktab menejmenti” yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, shuningdek, bugungi kunda jamiyatda kuchayib borayotgan loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun zararli ekanligi yoritib berilgan. Oilaning farzand tarbiyasidagi roli va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статье освещается совершенствование национально-идеологического воспитания у граждан нашей страны, а также то, что социальные пороки, такие как равнодушие, неуважение к нашим национальным ценностям, которые нарастают сегодня в обществе наносят вред обществу и государству. Обсуждены роль и значение семьи в воспитании детей.*

Annotation: *In this article, the improvement of national-ideological education among the citizens of our country, as well as the fact that social evils such as indifference and disregard for our national values are increasing in society and the state. A world about the role and importance of the family in raising children is held.*

Tayanch so'zlar: *“Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligi” konsepsiyasi, barkamol avlod, yetuk shaxs, Kaykovus, Abu-Lays Samarqandiy, Sa'diy Sheroziy, Qobusnoma, Abdulla Avloniy, insonparvarlik.*

Основные слова: *Концепция “Сотрудничества семьи, махалли, учебных заведений”, совершенное поколение, зрелый человек, Кайковус, Абу-Лайс Самарканди, Саади Шерози, Кабуснома, Абдулла Авлони, гуманизм.*

Key words: *“The concept of cooperation of family, neighborhood, educational institutions”, perfect generation, mature person, Kaykovus, Abu-Lays Samarqandiy, Sa'diy Sheroziy, Qobusnoma, Abdulla Avloniy, munificence.*

Tarbiya haqida gap ketganda eng avvalo hayolimizga XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” jumlasini kelishi hech gap emas. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-sonli qarori bilan “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi” konsepsiyasi qabul qilingan. Hamkorlik konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishga, el – yurt oldidagi mas'uliyatini seza oladigan,

insonparvar bo'lishiga qaratilgan." Konsepsiyada yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda:

- xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analarini, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish;

- milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga suyanish zarur ekanligi aytib o'tilgan. Undan tashqari bu konsepsiyada yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari hamda hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish tizimi, hamkorlik kengashining ishlash tartibi berilib, uni hayotga tadbiiq etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. "[1]

Barkamol avlodni tarbiyalashda judayam ko'plab xatolarga yo'l qo'yish mumkin. Tarbiya o'chog'i oila hisoblanadi. Bola tarbiyasida eng avallo ota – onaning o'zi yetuk tarbiyaga ega bo'lmog'i lozim. Agar ota – onaning tarbiya sohasida tajribasi bo'lmasa, bolaga ming tarbiya bermasin umuman foydasi bo'lmaydi. Demak tarbiya oiladan boshlanadigan bo'lsa, bola oila a'zolariga qarab tarbiya oladigan bo'lsa, ota – ona eng avvalo o'zini tarbiyalab olmog'i lozim. Ota – ona tarbiya topgan bo'lsa farzandlarini ham tarbiyalashda adashmaydi. Shaxsan biz tarbiya jarayonida ota – ona juda qattiqqo'l bo'lishi tarafdori emasmiz. Bolani yoshligidan boshlab tahqirlab? O'ta qattiqqo'llik bilan tarbiyalash bu – vahshiylikdir. Hozirgi kunda ota – onalar o'z farzandlariga juda yosh paytidan boshlab o'zi qiziqmagan kasbga yo'naltirishga majburlab qiladi. To'g'ri, bu qilayotgan hamma ishlari yaxshi niyatda, bolam bilimli bo'lsin, xalqqa foydasi tegsin degan bo'lishi mumkin. Bir tomondan bu yaxshi, lekin aslini olib qaraganda ota – onalar o'zlari bilmagan holatda o'z farzandlari bolaligini xazon qilib qo'ygan bo'ladi.

To'g'ri bola katta bo'ldiyam deylik, ota – ona o'z maqsadiga erishdi lekin u bola hech qanday hissiz bo'lib katta bo'ladi. Hayotida hech qanaqa ma'no bo'lmaydi. Hayoti faqat bir xil tarzda uydan ishga, ishdan uyga bo'lib qoladi. Bundan yigirma yil o'tib, o'glidan eng ko'p nimani sog'inasiz yoki armoningiz nima deb so'rashsa, "Men bolaligimda hech qachon otam bilan basketbol o'ynamaganman" yoki "Otam meni hech qachon o'zi bilan birga stadionga futbol tomosha qilish uchun olib bormagan", desa nimani his qiladi. Na u bolalariga vaqt ajratadi va na boshqasiga. Fikrimizcha bola yoshmi yoshligini qilsin, Xoxlasa ertalabdan – kechgacha ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynasin, sho'xlik qilsin. Chunki bolaligim – podsholigim deb bejiz aytilmagan. "Menga Sabahattin Alining bitta gapi juda ham yoqadi: "Aslida men o'ttiz besh yilga yaqinlashib qolgan umrimda bor – yo'g'i uch – to'rt oy yashab, qolgan umrimni o'zimga hech qanday aloqasi bo'lmagan ma'nosiz shaxsiyatning cheksiz tubiga ko'milib qolgandim..." [2].

Bola yoshlik davridan o'tdi deylik endi o'smirlik davri. Juda ko'pchilik yoshlarda qiyin kechadigan davr. Ota – onaning gaplari bolaga yoqmidi, ichish, chekish xullas hamma yomon ishlarga qo'shilib ketishga qiziqish uyg'onadigan davr. Bu davrda ota – onadan eng ko'p talab qilinadigan narsa bu bola tarbiyasida juda qattiq turishi. Chunki insonning inson

bo'lib shakllanishida balog'at davri juda katta rol o'ynaydi. Bu davrda ota – ona kerak bo'lsa har xil cheklovlar qo'ysin. Ko'chaga chiqarmasin, telefondan yoki internetdan uzoq tutsin. Chunki aynan mana shu davrda bolada internetdagi har xil saytlarga qiziqish uyg'onadi. Bir necha yillar oldin ko'plab o'smir yoshidagi bolalarning hayotiga nuqta qo'ygan “ Ko'k kit “ o'yini ham shular jumlasidandir. Shu balog'at yoshidan o'tib oldimi, bola yaxshi yo'ldan ketyabdimi buyog'iga marra uniki. Endi u o'z hayot yo'lini tanlay oladi va hayotda yuqori marralarga erishadi.

“ Kaykovusning to'liq ismi Unsurul Maoliy Kaykovus bo'lgan. Hayoti haqida to'liq ma'lumot keltirilmagan. Tarixiy dalillarning shohidlik berishicha Kaykovus “Qobusnoma” ni o'z o'g'liga atab yozadi va kitobining nomini bobosi, Somoniylar davri hukmdorlaridan biri bo'lgan Shamsul Maoliy Qobus ibn Vushmagir nomi bilan ataydi. Otaning o'z o'g'li tarbiyasi va kelajagi uchun dasturilamal bo'luvchi maxsus pandnoma asar yozishi hamda uni bobosi nomi bilan atashida ham o'ziga xos sharqona oilaviy tarbiya tamoyili bor. “Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandnomani qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman” , deydi ma'rifatparvar ota Kaykovus. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biron narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarni o'zlarining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar.”[3]

Kaykovus o'z o'g'lining kelajagi haqida qayg'urib, uning kelgusida har jihatdan barkamol, to'kis inson bo'lib yetishishini istagan holda o'z o'git va pand nasihatlarini qoldirib ketgan. Kaykovus farzand parvarishi haqida so'z yuritar ekan, hech narsani nazaridan qochirmaydi. Yangi tug'ilgan farzandga avvalo yaxshi ot qo'yish, so'ng uni aqlli, mehribon doyalarga berish, katta bo'lib, es-hushi kirgach, hunar va kasb o'rgatish, o'qitib ilmi qilish kabi vazifalar ota-onaning, birinchi navbatda otaning ezgu burchi ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramadurg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat esa barkamol avlod tarbiyasiga boshqacha yo'l bilan yondashadi. Fitrat nuqtayi nazariga ko'ra farzandning har jihatdan to'laqonli inson bo'lib shakllanishi uchun unga jismoniy, aqliy va ma'naviy yo'nalishlarda ko'p tarkibli tarbiya berish lozim bo'ladi. Fitrat bu o'rinda yuqoridagilar bilan kifoyalanmay, bola ruhi ham tarbiyalanishga muhtoj ekanligini alohida uqtiradi. “Odamning fe'l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, - deb yozadi. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmatini, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin, so'nmasin, balki ko'karsin” deb yozadi Fitrat. Undan tashqari ana bir bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak deydi.

“ Jaloliddin Devoniy esa “Bolaning tarbiya olishi, odob axloqli bo’lishi, uning keyingi tarbiyasiga bog’liq. Chunki hayotda har kuni bola ko’radigan, muloqotda bo’ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta’sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish - turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshdagilarni hurmat qilish, to’g’rilik va rostgo’ylikni o’rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so’zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o’rganiladi” deb takidlab o’tgan. Munavvarqori Abdurashidxonov esa bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etdi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga; mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo’lishga chorladi, ota-onalarni farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go’zallik tuyg’usini rivojlantirishga da’vat qildi. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg’otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, g’ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.” [4]

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish mumkinki, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho’lpon, Behbudiy, Usmon Nosir, Abdurauf Fitrat va shu kabi o’zbek adabiyotida o’chmas iz qoldirgan shoir va yozuvchilarimizni bola tarbiyasi haqida yozib qoldirgan gaplari bugungi kundagi yosh oilalarga farzand tarbiyasida amal dasturi bo’lib xizmat qilib kelayabdi deb bemalol aytishimiz mumkin. Bola tarbiyasini qachondan boshlamoq lozim, uning tarbiyasida nimalarga ko’proq e’tibor berish kerak, bu jarayonda oilaning roli qanday ? degan savolarga mana shu shoir va yozuvchilarimizning durdona asarlaridan bemalol javob topa olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Po’latov “Ta’lim menejmenti, yoxud ta’lim muassasasini ilmiy – metodik boshqarish strategiyasi” Toshkent – 2019
2. Go’kan Kinsun “Taslim bo’lma mo’jizalar oldinda” Toshkent – 2022
3. I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov “Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi” Toshkent – 2009
4. R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova ,M.K.Shirinov, S.Hafizov.” Umumiy pedagogika “ Toshkent – 2018
5. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.
6. Musurmonov, R., Sultanova, D., & Hakimova, I. (2022). SHAXS FAZILATLARI TARKIB TOPISHIDAGI NUQSONLARNI OLDINI OLIISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special Issue 2), 342-345.